



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

YER RESURSLARINI BOSHQARISHDA JAHON TAJRIBASINI

O'RGANISH

S. H. Oltinov

“TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti “Yer resurslaridan foydalanish va davlat kadastrlari” kafedrasi stajyor-o'qituvchisi

L. I. Ubaydulloyev

“TIQXMMI”MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Milliy tadqiqot universiteti” Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada bugungi raqamli texnologiya davrida barcha sohalarni istiqbolli rivojlantirish uchun soha doirasidagi jahon tajribasini o'rganish, tahlil qilish va uning afzal tomonlarini mamlakat ichki tizimiga joriy etish samarali usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация:

В данной статье представлена информация об эффективных методах изучения и анализа мирового опыта в данной сфере и внедрения его преимуществ во внутреннюю систему страны для будущего развития всех отраслей в современную эпоху цифровых технологий.

Abstract:

This article provides information on effective methods of studying and analyzing world experience in the field and introducing its advantages into the domestic system of the country for the future development of all sectors in today's digital technology era.

Kalit so'zlar: Yer resurslari, fazoviy ma'lumotlar, ma'lumot, axborot, raqamlashtirish, yer qonunchiligi, fermer xo'jaligi, bozor munosabatlari.

Ключевые слова: Земельные ресурсы, пространственные данные, информация, информация, цифровизация, земельное законодательство, сельское хозяйство, рыночные отношения.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Key words: Land resources, spatial data, information, information, digitization, land legislation, agriculture, market relations.

Kirish

Chet mamlakatlarda, ayniqsa yer bozori rivojlangan davlatlarda yer resurslaridan foydalanishni boshqarishni tashkil etishi va uslublari keskin farq qiladi. O‘zbekiston uchun yerdan foydalanishni boshqarish xarakteri bo‘yicha anchagina yaqin bo‘lgan mamlakatlar ichiga bozor iqtisodiyotiga o‘tish bosqichida bo‘lgan MHM, va ayniqsa Markaziy Osiyo mamlakatlari hisoblanadi, negaki ushbu region uchun sug‘oriladigan dehqonchilik va asosiy qishloq xo‘jalik ekinlarining turlari umumiy shartlar hisoblanadi[4]. Bundan tashqari, MHM barcha mamlakatlarida siyosiy tizim o‘zgardi va demokratik iqtisodiyotning agrar sektorida, shu jumlada yer munosabatlarda ham islohotlarni amalga oshirishga o‘zlarining siyosiy moyilligini namoyon qilishdi; shu maqsadda tegishli tarkiblar tuzildi; yer qonunchiligining bazasi yaratildi; boshlanish shartlari va iqtisodiy hamda yer o‘zgarishlarini bir necha bosqichda o‘tkazish zaruriyati bu yerda amalda deyarli bir xildir. Ushbu regiondagи mamlakatlar yerdan foydalanishning boshqarishdagi yagona farq iqtisodiy, shu jumladan yer islohotlarini, boshqarishning institutsional tarkibini joriy etishning turlicha darajadaligi hisoblanadi.

Tadqiqot mavzusi doirasida O‘zbekiston va Turkmaniston respublikalari yer resurslaridan foydalanishni boshqarish tizimi ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi.

1). Turkmaniston Respublikasi.

Turkmanistonda 1991-1992 yillardagi yer-agrar munosabatlari sohasidagi o‘zgarishlar Dasturi bo‘yicha quyidagilar ko‘zda tutilgan edi:

- qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatidagi yerkarni xususiylashtirish;
- qishloq xo‘jaligini tashkil etishning jamoa shaklini tugatish.

Bugungi kunda Turkmanistonda yerning ichki xo‘jalik ijarasi asosida tashkil etilgan 650 fermer xo‘jaliklarining Birlashmalari faoliyat ko‘rsatmoqda, ya’ni bu yerdan oilaviy pudrat rivojlangan (paxta bo‘yicha yer bo‘laklarining miqdori 0,5-1,5 ga, kuzgi bug‘doy bo‘yicha-1,0-3,0 ga). Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan fermer xo‘jaliklari mavjud emas. Asosiy ixtisosligi-paxtachilik va kuzgi donchilik. Tor ixtisosliklarga (sabzavotchilik, polizchilik, donchilik, sholichilik, mevachilik) ega xo‘jaliklar mavjud emas. Birlashmalarda 60-70 hektarli brigadalar tashkil etiladi,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

aynan ushbu brigadalarda mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha ishlarning texnologik majmuasi tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Birlashmani boshqarish tizimida-rais, ishlab chiqarish masalalari bo'yicha uni o'rinosari, ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinosari, tuman MTP bilan texnik aloqalar bo'yicha 1-mexanik, 1-agronom, 1-mirob (suvchi) mavjud.

Har bir ma'muriy tumanda bittadan MTP mavjud, xo'jaliklar birlashmalarida qishloq xo'jalik texnologiyalari yo'q, ular birlashmalarga biriktirilgan. MTP da ehtiyoj qisimlari yetishmaydi, 1 dekabrga barcha birlashmalar yer haydashni tugata olmaydilar, har gektar yerga me'yordagi 1 ot kuchi o'rniqa amalda bugungi kunda 0,1 ot kuchiga ega texnika mavjud.

Davlat yer hisobining ma'lumotlari bo'yicha mamlakatda 1,7 mln.ga sug'oriladigan ekin yerlari mavjud, haqiqatda esa 1,5 mln.ga yerdan foydalaniladi. Kuzi don ekinlarini maydoni 2008-2010 yillarda 880,0 ming gani, shu jumladan, lalmi ekinzorlarda-80,0 ming gani tashkil etdi, 840 ming tonna don yetishtirildi, sug'oriladigan ekin yerlariga hosildorlik gektariga 11 sentnerni tashkil etdi. Paxta maydonlari 550 ming gani tashkil etgan, 850 ming tonna paxta xom-ashyosi olindi, hosildorlik rejadagi 19,1 s/ga o'rniqa 15,0 s/ga ni tashkil etdi. Kuzgi bug'doyni sug'orishga gektariga 5,2 ming kub. M.gacha va paxtani sug'orishga, sho'r yuvish va namlantirishlar bilan birgalikda gektariga 7,2 ming kub.m.gama suv sariflangan. Paxta ekini maydonlarini 400 ming gektarigacha va kuzgi bug'doy maydonlarini 600 ming gektargacha qisqartirish rejalashtirilgan.

Turkmaniston Respublikasida yer resurslarni boshqarish tizimi bizdan farqli o'laroq fermer xo'jaliklarining Birlashmalari faoliyati orqali amalga oshiriladi. Yerlardan foydalanish sub'ektlari esa yuridik maqomga ega bo'limgan kichik maydonlarda faoliyat yuritadigan oilaviy pudratchilardir.

Xitoy Xalq Respublikasi.

Xitoy Xalq Respublikasi o'tish iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakat hisoblanadi, o'z iqtisodiyotini isloq qilishda o'zining bosqichli, iqtisodiy islohotlarning evolyusion modelini tanladi. Iqtisodiy o'zgarishlar agrar sektoridan boshlanadi, u sektor doimo mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynagan. O'zining tashkil etish boshlanishida mamlakatning qishloq aholisi 89%ga yaqinni tashkil etgan, qishloq xo'jaligini ichki yalpi mahsulotdagi ulushi 45%ni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligini keyingi qattiq tartibli markazlashtirishi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojini to'xtatdi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

pasayishiga olib keldi, dehqonlar daromadi amalda o'smadi, urbanizatsiya jarayoni to'xtadi. Iqtisodiyotning agrar tarmog'ini isloh qilishning quyidagi asosiy vazifalari belgilab olingan:

- yer munosabatlari va yerdan foydalanish tarkibini isloh qilish, yer tuzishni va yer resurslarini bozorini yangi tizimini shakllantirish;
- mulkchilikning tubdan o'zgartirish va qishloq xo'jalik korxonalarini qayta tashkil etish;
- xo'jalik yuritish turlicha tashkiliy-huquqiy shakllarini rivojlantirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish;
- davlatning funksiyasini o'zgartirish.

1978 yildagi islohotni amalga oshirishning boshlanish dehqon hovlilari tizimini yaratish bilan bog'liq, u 1983 yilga kelib qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etishning asosiy shakliga aylandi (islohotning 1-chi bosqichi). Keyin qishloq joylaridagi ma'muriy va xo'jalik boshqaruvini isloh qilishga o'tish amalga oshirildi. 1984 yildan boshlab qishloq xo'jalik mahsulotlarini muomala tizimini isloh qilish boshlandi (2-chi bosqich), u aholining keng qatlamlari manfaatlarini qamrab oldi hamda shu sababli birinchi bosqichdan ancha katta bo'ldi. Ikkinci bosqich 1991 yili nihoyasiga yetdi. Islohotning uchinchi bosqichi (1992-2000y) mamlakat iqtisodiy tizimining keng miqyosli, tizimli qayta o'zgartirish bosqichi hisoblanadi. To'rtinchi bosqich (2001 yildan) amalda mamlakatni Umumjahon Savdo Jamiatiga qabul qilinishi bilan bog'liqdir.

Xulosa

Yer resurslaridan foydalanishni boshqarish mexanizmlari haqida so'z borganda albatta ularning nazariy asoslarini, ya'ni ushbu mexanizmlarning ilmiy mohiyatini tushunish muhimdir. Yerdan foydalanishni boshqarish jarayonining asosini bozor munosabatlari tashkil etadigan shunday bir yaratiladigan xo'jalik mexanizmiga uzviy bog'lanishi zarur. Shu jihatdan asosiy vazifa shundan iborat bo'ladiki, bunda yer resurslaridan foydalanishga shunday bir to'lovlar kiritiladiki, ular haqiqatdan ham qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanishning haqiqiy tayanchi bo'ladi. Turkmanistonda yerdan foydalanish sub'ektlari sonining nihoyatda ko'pligi va yuridik jihatdan aniq bir tizimga solinmaganligi yer resurslaridan foydalanishni boshqarish jarayonini murakkablashtiradi hamda yerdan samarasiz foydalanish holatlarini keltirib chiqaradi. Bu esa mamlakatda yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish lozimligini ko'rsatmoqda. Xitoyda yer resurslarini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th October - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

foydalanimishning yakka tartibdagi va kooperativ shakllari birligida mavjuddir. Yer resurslaridan foydalanimish Xitoyda nihoyatda oqilona tizimda yo‘lga qo‘yilgan. Yangi O‘zbekistonda yangi islohotlar amalga oshirilishi bilan bir qatorda axborotlarni mamlakatimizning bepoyon hududi uchun tayyorlanishi, yerning tabiiy, xo‘jalik va boshqa xususiyatlarini aks ettirish zarur ekanligini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotning yer axborotiga ehtiyoji axborotni zamon talablariga moslashtirib borishga, uni yangi ko‘rinishlarda ishlab chiqish, o‘sib borayotgan ish xajmlari va ishonchlilagini orttirib borishni hisobga olib hududlardagi iqtisodiy o‘sish, oziq-ovqat xavfsizligi, ish o‘rnulari va investitsiya oqimini jadal rivojlantirish zarur, avvalo, yerga bog‘liq axborotlarni o‘z vaqtida tayyorlashni takomillashtirishni talab qilmoqda. Qishloq xo‘jalik va boshqa maqsadlar uchun yer axborotini ishlab chiqish maqsadli yo‘nalish va axborotni shakllantirish metodikasidan katta farq qilmoqda.yangi metodlar orqali investitsion muhit yaratish zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2020-yil 7-sentyabr PF-6061
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori 2020-yil 7-sentyabr PQ-4819.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligiga mo’ljallangan yerlardan foydalanimish va muhofaza qilish tizimini takomillashtishga doir qo‘sishcha chora-tadbirlar tog‘risida”
4. www.lex.uz
5. www.ygk.uz
6. www.senat.uz
7. WWW.president.uz